



Приложение № 8 к правилам казначейского исполнения  
бюджетов бюджетной системы Республики Узбекистан

**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***

к договору (контракту) от 16.08.2022 г. № 32/22

между "DAVR PROEKT" МЧЖ и Куйи Сирдарё ИТХБ қошидаги Сирдарё насос станциялари энергетика  
бошқармаси на общую сумму 49000000,00

Глава

170

Казначейский лицевой счёт

100021860244017042402170003

(в суммах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4239000			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август	49 000 000,00			49 000 000,00
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Всего за год</b>	<b>49 000 000,00</b>			<b>49 000 000,00</b>

Всего 49000000,00 сум

Сорок девять миллионов сум 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 14700000,00 сум или 30,00%\*\*\* от общей суммы договора  
подлежат предоплате в \_\_\_\_\_ мес. 20\_\_ г.

(\*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный \_\_\_\_\_ % , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до \_\_\_\_\_ числа текущего месяца.  
(Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



Главный бухгалтер заказчика

Абдуллаев Давронжон Вахобжон ўғли

Ф.И.О.

(подпись)

Тўйчибаев Манасобай Бабаназарович

Ф.И.О.

(подпись)

Принял работник казначейского  
подразделения

Получил работник  
заказчика

«\_\_\_» 20 \_\_\_ г.

«\_\_\_» 20 \_\_\_ г.

(подпись)

(подпись)

"TASDIQLAYMAN"



B. Mamatqulov.

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani "Umarov" va "Xaqiqat" xududlarida 2 dona, sug'orish quduqlarini qurish ishlari bo'yicha: ishchi loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish, qurilish davrida mualliflik nazoratini o'rnatish , gidrologik xulosasini berish, topo-tadqiqot ishlari va ekspertizadan ijobiy xulosasini olish ishlarini ishlab chiqishga doir e'longa qo'yilgan 22110012131061-sonli lotga asosan eng yaxshi takliflarni aniqlashda 2022-yil 12-avgustdagি davlat xaridlari maxsus axborot portalida elektron shakllangan dastlabki bayonnomaning muhokoma uchun qo'yilgan 2 ish kuni davri natijalari bo'yicha xarid komissiyasi yig'ilish

BAYONI - 16

2022 yil 16 avgust

Guliston shahri

KUN TARTIBI:

22110012131061-sonli lot bo'yicha 2022-yil 12-avgust kunida elektron shakllangan dastlabki bayonnomaning davlat xaridlari maxsus axborot portaliga muhokoma uchun qo'yilgan 2 ish kuni davri natijalarini ko'rib chiqish.

(B. MAMATQULOV, X. CHINIBEKOV, G. SULEYMANOV, N. ABDULLAYEV, SH. JO'RAYEV, J. TURSUNOV)

1. Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani "Umarov" va "Xaqiqat" xududlarida 2 dona, sug'orish quduqlarini qurish ishlari bo'yicha: ishchi loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish, qurilish davrida mualliflik nazoratini o'rnatish , gidrologik xulosasini berish, topo-tadqiqot ishlari va ekspertizadan ijobiy xulosasini olish ishlarini ishlab chiqish bo'yicha g'olibni aniqlashda 2022 yil 11-avgustdagи dastlabki elektron bayonnomaga asosan DAVR PROEKT MCHJ (Jizzax shahar, A. Navoiy ko'chasi 2 uy, STIR 303995438) xarid qilish tartib-taomillari yakunlariga ko'ra summasi **49 000 000 so'm qqs bilan** va ushbu xizmatlarni bajarish muddati **30 kunga** berilgan taklifi eng maqbul deb topilgan edi.

*Ma'lumot uchun: 2022 yil 4-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Tovar xom ashyo birjasining maxsus elektron portaliga (etender.uzex.uz) eng yaxshi*

*takliflarni tanlash bo'yicha hujjatlar 22110012131061-son lot bilan e'lon joylashtirilgan.*

Bunda, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunga asosan davlat buyurtmachisi tomonidan dastlabki electron bayonnomma rasmiylashtirilgan kunda davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirilishi kerakliligi belgilangan.

Shuningdek, ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushmaganligi hamda muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmasligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tanlov Komissiya kotibi (J. Tursunov):

Davlat buyurtmachisi tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to'g'risidagi axborot asosida xarid komissiyasining majlisi bayonnomasi rasmiylashtirilib va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirsin.

Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot Tanlov komissiya kotibi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay joylashtirsin.

*Asos: "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning 62-moddasi*

3. Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i (M.To'ychibayev) tuzilgan shartnomaga muvofiq tegishli to'lovlarni amalga oshirsin.

Komissiya a'zolari:

X. CHINIBEKOV

G'. SULEYMANOV

N. ABDULLAYEV

SH. JO'RAYEV

Komissiya kotibi

J. TURSUNOV

**ШАРТНОМА № 32/22**  
Лойиха-қидириув ва смета ишларини бажариш учун

Гулистан шаҳри

16. 08. 2022 йил

«Сирдарё насос станциялари ва энергетика бошкармаси» (кейинги ўринда "Буюртмачи" деб юритилади) номидан ўзининг Низоми асосида иш олиб борувчи бошлиги Д.Абдуллаев, бир тарафдан ва иккинчи тарафдан "ДАВР ПРОЕКТ" МЧЖ (кейинги ўринда "Лойихачи-ижрочи" деб юритилади) номидан ўзининг низоми, асосида иш олиб борувчи директори Р.Хожиев, биргаликда ушбу шартномани кўйидаги мазмундаги туздилар.

**I. ШАРТНОМА МАЗМУНИ**

1.1. "Лойихачи-ижрочи" "Сирдарё вилояти Сирдарё тумани "Умаров" ва "Хакиқат" худудларида 2 дона, сугориш қудукларини қуриши" обьектининг Ишчи лойихаси бўйича "Буюртмачи" томонидан берилган топшириқ асосида лойиха смета хужжатларини ишлаб чиқишини ва муаллифлик назоратини амалга оширишини ўз зиммасига олади.

1.2. "Буюртмачи" ушбу бажарилган ишларни қабул килишни ва унга ҳақ тўлашни ўз зиммасига олади.

1.3. Ушбу шартнома бўйича бажариладиган ишлар "Буюртмачи" томондан берилган техник топширикга асосан ва бошқа талабларга мувофик амалга оширилади.

**II. ШАРТНОМА БАҲОСИ**

2.1. Шартноманинг умумий қиймати 49 000 000 (Кирк тўккис миллион) сўмни КҚС билан ташкил қиласди.

2022 йилда бажарилган ишлар учун 49 000 000 сўм КҚС билан молиялаштирилади.

2.2. "Буюртмачи", "Лойихачи-ижрочи" ташкилотга шартномани имзолангандан сўнг 10 банк куни мобайнида ушбу шартнома қийматидан 30% (14 700 000) сўм КҚС билан миқдорида бўнек (аванс) тўлади.

2.3. Иш қийматининг қолган 70% далолатнома ва ҳисобварак-фактура имзолангандан сўнг ўтказилган авансни чегириб ташлаган ҳолда ёки оралиқ боскичлар бўйича далолатномалар ва ҳисобварак-фактуралар бўйича 20 банк куни мобайнида тўланади. Ҳар бир оралиқ боскичнинг қиймати хакикатда бажарилган ишнинг таркиби ва ҳажми билан аникланди.

2.4. "Буюртмачи", "Лойихачи-ижрочи" лойиха режаси бўйича лойихага топшириқ беради. Шартномавий нархлар Ўзбекистон Республикаси курилиш вазирлигининг томонидан лойиха тадқикот ишларининг қийматини аниглаш тартиби тўғрисидаги Низоми асосида ва таклиф этилган нархлар доирасида белгиланди.

**III. ИШНИ БАЖАРИШ, ЭТКАЗИБ БЕРИШ ВА ҚАБУЛ  
КИЛИШ ТАРТИБИ ВА МУДДАТЛАРИ**

3.1. Бажариладиган ишларнинг умумий муддати шартномада кўрсатилган муддатлардан ошиб кетмаслиги лозим. Кўйидаги ҳолларда шартномада кўрсатилган лойихани топшириш муддатлари кечикирилиши мумкин:

- Форс – мажор ҳолатларда (ВИ).

3.2. Иш якунида "Лойихачи-ижрочи" "Буюртмачи"га лойиханинг тўлиқ таркибининг уч нусхасини топширади.

3.3. "Буюртмачи" хужжатларни "Лойихачи-ижрочи"дан қабул килгандан сўнг 10 кундан кечикитмай экспертиза органига топшириши шарт.

3.4. "Лойихачи-ижрочи" эксперт хulosasi лойихалаш тугаганидан сўнг бир ойдан кечикитмай қабул килинган бўлса ва шу вақт мобайнида "Буюртмачи"нинг дастлабки маълумотлари, стандартлари ва талабларида ўзгариш бўлмаган бўлса, лойихалаш ва смета хужжатларини бепул тузатиши шарт.

Акс ҳолда тузатиш алоҳида шартнома асосида амалга оширилади.

3.2. Ишнинг бошланиши "15" айдан 2022 йил, тутатилиш муддати "1" сенурдан 2022 йил.

**IV. ТАРАФЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ**

4.1. "Лойихачи-ижрочи"нинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари:

- "Буюртмачи" томонидан берилган топшириқ асосида лойиха смета хужжатларини сифатли тайёрлайди.

-Тайёрланган лойиха смета хужжатларини амалдаги мөйөрүй хужжатларга мос келиши, нархларни тұғри шаклланиши ва белгиланган муддатларда бажарилишини кафолаттайтын.

-Лойиха-смета хужжатларини ва лойиха-кидирув (изискания) ишларини бажариш учун субпудрат ташкилотини жақп килиш хукукига эга.

-Иш жараённанда вужуда келгандыктың мұаммолар бүйічада ўз вактида "Буюртмачи"ни огохлантиради ва юзага келгандык мұаммони ўзаро келишгандықта ҳолда ҳал этилади.

-"Лойихачи-ижрочи" объекттің ўз вактида ишга тушириші ва ишларни бажариш жадвали бүйічада ўз мажбuriятларини бузғанлығы учун "буюртмачи"га муддаттың үтказіб юборилған жаңа бир күн учун мажбuriятларнинг бажарылмаган кисмінинг 0,1 фоизи міндеторида пеңя тұлайды, бирок бунда пеңяның умумий суммасы объект шартномавың жорий қыйматининг 50 фоизидан ошмаслығы лозим.

4.2. "Буюртмачи"нинг хукуқы мажбuriятлардан:

-"Лойихачи-ижрочи" томонидан тайёрланган лойиха-смета хужжатларини белгиланган тартибда кабул килип олиш.

-Тайёрланган лойиха смета хужжатлары учун шартномада күрсатылған муддатларда ва тартибда түловни амалға ошириш.

-"Буюртмачи" шартномада күрсатылған муддатларда ва тартибда түловни амалға ошириш масдан ўз мажбuriятларини бузғанлығы учун "лойихачи-ижрочи"га муддаттың үтказіб юборилған жаңа бир күн учун мажбuriятларнинг бажарылмаган кисмінинг 0,1 фоизи міндеторида пеңя тұлайды, бирок бунда пеңяның умумий суммасы объект шартномавың жорий қыйматининг 50 фоизидан ошмаслығы лозим.

## V. ЭТКАЗИБ БЕРИШ ВА ИШЛАРНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШ ТАРТИБИ.

5.1. Бажарылған ишларни кабул килиш ва баһолаш техник топшириқтегі талабларға мувофиқ белгиланади.

5.2. "Лойихачи-ижрочи" томонидан бажарылышы ва шартноманы бажариш тутагандан сүнг лойиханың маълум боскичларыда "буюртмачи"га топшириліши керак бўлган хужжатлар рўйхати техник топшириғи билан белгиланади.

5.3. Хисоб-фактуранинг якуний боскичи "Лойихачи-ижрочи" томонидан "буюртмачи"га талаб қилинган міндеторида белгиланган хужжатларни "қабул килиш" далолатномасини тақдим этганидан кейин 5 кун ичида расмийлаштирилади.

5.4. "Буюртмачи" мазкур шартноманинг 1.1-бандида күрсатылған лойиха хужжатларини кабул килиш далолатномасини "Лойихачи-ижрочи" тақдим этганидан сүнг 5 кун ичида кабул килиб, имзолаши шарт. Агарда эътиrozлар мавжуд бўлса, дарҳол бу хақда 5 кун ичида ёзма равишда "Лойихачи-ижрочи" га маълум килади.

5.5. "Буюртмачи" лойиханы кабул қилинши асосли равишда рад этган тақдирда, томонлар ўргасида лойиха ишларидаги камчиликларни ва уларни бартараф килиш муддатларини акс эттирган ҳолда далолатнома тузадилар.

5.6. Агар лойиха ишларини бажариш давомида уни кейинчалик амалға оширишнинг мақсадга мувофиқ эмаслиги аниқланса, томонлар 5 кун ичида бир-бирларини лойиха ишларни тұхтатылышы тұғрисида хабардор килишлари шарт ва 5 кун ичида лойиха ишларини давом эттиришнинг мақсадга мувофиқларын күриб чиқишлари керак. Иш тұхтатылышы тақдирда, бажарылған лойиха ишлари ушбу лойиха учун тақдим этилған рентабеллик даражаси билан боғлиқ бўлған ҳақиқий харажатлар "буюртмачи" томонидан тұланади.

5.7. Ўзаро якуний хисоб-китобларни амалға ошириш учун томонлардан бирининг ёзма мурожаати күриб чиқылади ва шу асосида лойиха ишлари тутатылди деб хисобланса, якуний түловлар ніхоясига этказилади.

5.8. Агар ишни бажариш давомида "Буюртмачи" ёки "Лойихачи-ижрочи" лойиха ишининг бир турини бошқасига алмаштириши зарур деб топса, бундай алмаштириш ушбу лойиха иши доирасида томонлар ўргасида ёзма келишув асосида амалға оширилади.

## VI. ФОРС – МАЖОР ҲОЛАТЛАРИ

6.1. Тарафларнинг бирортаси бошқа тарафнинг олдида, ушбу шартнома бүйічада олган мажбuriятларини тарафларнинг әркінде ташкари пайдо бўлған ва уларни олдиндан кўра билиши ёки бартараф этиши мүмкін бўлмаган ҳолатлар (зилзила, сув тошқини, ёнғин ва бошқа табиий оғатлар) содир бўлғандан жавобгар бўлмайди.

6.2. Ўз мажбuriятини бажармаган тараф шартнома бүйічада мажбuriятни бажаришга унинг таъсир күрсатыши ёки монелик килиши тұғрисида бошқа тарафга имкон кадар тезда хабар бериси лозим.

6.3. Агар бартараф килиб бўлмайдиган кучлар 15 кун ичида мунтазам таъсир этадиган бўлса ва тугаш белгилари аниқланмаса бир тараф иккінчи тарафга ёзма хабар бериси йўли билан шартномани бекор килинши талаб қилиши мүмкін.

6.4. Бартараф килиб бўлмайдиган кучларнинг мавжудлиги ёки амалда давом этаётганлиги Ўзбекистон Республикаси хукуматининг қарорлари ёки бошқа ваколатли органлар томонидан белгиланади.

## VII. ШАРТНОМАНИ ЎЗГАРТИРИШ ЁКИ БЕКОР ҚИЛИШ ШАРТЛАРИ

7.1. Ушбу шартнома тарафларнинг ёзма розилиги асосида ўзгартирилиши ва қўшимчалар киритилиши мумкин.

7.2. Қуйидаги ҳолларда шартнома тарафларнинг ташаббуси билан бекор қилиниши мумкин:

- Республика хукумати қарорига кўра.
- Ваколатли органлар қарорига кўра.
- Форс – мажор ҳолатлар туфайли.

## VIII. НИЗОЛАРНИ ҲАЛ ҚИЛИШ ТАРТИБИ.

8.1. Томонлардан бири шартнома мажбуриятларини бажармаган ёки лозим даражада бажармаган тақдирда, айборд томон Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодекси, "хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий хукукий базаси тўғрисида"ги ҳамда "тадбиркорлик субъектларининг хукукий асослари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси конуни ва бошқа конун хужжатлари ҳамда ушбу шартномада белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

8.2. Томонлар ўртасида келиб чикдиган келишмовчиликлар ва низолар ўзаро музокара ўтказиш йўли билан ҳал этилади. Агар келишмовчиликларни ёки низоларни музокара ўтказиш йўли билан ҳал этилмаса, келишмовчиликлар ва низолар амалдаги Конунчилик талабига кўра тааллуклиги бўйича иктисадий суд томонидан кўриб чикиб ҳал этилади. Бунда олдин тарафлар ўзаро келишувга эришмасалар.

## IX. ШАРТНОМАНИНГ ҚЎШИМЧА ШАРТЛАРИ

9.1. Пудратчи ташкилотлар томонидан бажарилган ишлар учун тўловлар, Молия вазирлиги томонидан пул ажратилишига қараб амалга оширилади.

9.2. Ушбу шартнома тарафлар томонидан имзоланиб, Фазначилик худудий бошқармаси томонидан рўйхатта олингандан сўнг конуний кучга киради ва 2022 йил 31 декабрь кунига кадар амал қиласди.

## ТАРАФЛАРНИНГ МАНЗИЛИ ВА ТУЛОВ РЕКВИЗИТЛАРИ

### "Лойиҳачи-ижрочи" "ДАВР ПРОЕКТ" МЧЖ

Манзил: Жizzax ш., А.Навоий кўчаси 12 уй.  
Тел/факс: +99899 357 43 21  
х/р: 2020 8000 4006 2360 5001  
АТБ Микрокредитбанк Жizzах минтақавий  
филиали  
МФО: 00135 ИНН: 303 995 438  
ОКОНХ: 66000 ОКЕД 71120

Директор:  Р.Хожиев



### "Буюртмачи":

« Сирдарё насос стансиялари ва энергетика бошқармаси»  
Гулистон шахри  
А.Темур кўчаси, 53  
Тел. (67) 227-36-85  
Шхр:10002186024401704240217003  
ИНН: 200969694 ОКЕД 22100  
Х/р. 23402000300100001010  
МБХКМ Тошкент ш. М.Б.  
Молия Вазирлиги Фазначилиги  
МФО: 00014 ИНН: 201122919



Д.Абдуллаев

  
Д.Абдуллаев

**“DAVR PROEKT” МЧЖ ва “Sirdaryo NS va E.Boshqarmasi” о’rtasida 16 avgust 2022 yildagi 32/22 sonli 49 000 000 so’m 00 tiyin ga tuzilgan shartnoma hujjatlari xuquqiy ekspertizadan o’tkazish to’g’risida**

**X U L O S A № 44**

*17 avgust 2022 yil*

*Guliston shaxri*

Ushbu shartnoma O’zbekiston Respublikasi «Xo’jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to’g’risida»gi qabul qilingan qonun talablariga asosan tuzilgan.

Ushbu shartnoma yuqorida ko’rsatilib o’tilgan «Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to’g’risida»gi qonunning va Nizomning talablariga mos keladi.

Shartnoma nizolarini xal qilish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda xo’jalik sud tomonidan, yoki taraflarning kelishuviga asosan xal qilinishi belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib “DAVR PROEKT” МЧЖ ва “Sirdaryo NS va E.Boshqarmasi” о’rtasida 16 avgust 2022 yildagi 32/22 sonli 49 000 000 so’m 00 tiyin ga tuzilgan shartnoma hujjatlari qonuniy jihatdan to’g’ri tuzilgan.

**Sirdaryo NS va Eboshqarmasi  
xuquqshunosi:**



**U.Mirboboev**



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

## GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

**"DAVR PROEKT" Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

(Yuridik shaxaning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'satilgan holdagi to'liq nomi)

**"DAVR PROEKT" MChJ**

(Yuridik shaxaning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

01.06.2016

369

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yili):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR):

303995438

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Jizzax viloyati, Jizzax shahri, A. NAVOIY KO'CHASI, 2 - UY,

Guvochnoma:

Jizzax viloyati, Jizzax shahri, DAVLAT XIZMATLARI

tomonidan

MARKAZI benigan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):





Ўзбекистон  
Республикаси  
Курилиш вазирлиги

№ 6441-195f-f322-684e-62c2-9064-8575  
Хужжат яратилинган сана: 2021-01-04  
Ариза рақами: 26010970

Хужжат берилган: ОБЩЕСТВО С ОГРАНИЧЕННОЙ  
ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ "DAVR PROEKT"  
Қабул қылувчининг идентификация рақами: 303995438

**Архитектура-шаҳарсозлик ҳужжатларини ишлаб чиқиш фаолиятини амалга ошириш учун  
ЛИЦЕНЗИЯ**

ОБЩЕСТВО С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ "DAVR PROEKT" га объектларнинг  
мураккаблик тоифалари классификатори бўйича III тоифадаги объектлар учун куйидаги:  
Тўлиқ комплексда лойиҳалаш бўйича фаолият турлари. А гуруҳи Сув ҳўжалиги қурилиши учун  
объектлар ва комплекслар лойиҳа-смета ҳужжатларини яратиш, шу жумладан уларнинг  
муҳандислик тармоқлари ва тизимларини лойиҳалаштириш, Уй-жой-ҳўжалик қурилиши учун  
объектлар ва комплекслар лойиҳа-смета ҳужжатларини яратиш, шу жумладан уларнинг  
муҳандислик тармоқлари ва тизимларини лойиҳалаштириш фаолият тур(-лар)и билан  
шуғуланишга лицензия берилди.

Лицензия берилган сана: 04-01-2021 йил

Лицензия рақами: АЛ-001569

Солиқ тўловчининг идентификация рақами (СТИР): 303995438

Юридик шахснинг почта манзили: A.NAVOIY KO'CHASI, 2 - UY

Лицензия амал қилиш муддати чекланмаган.

НОСИРОВ ОБИДЖОН ШАРОФОВИЧ

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон  
карори билан тасдиқланган ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат  
хизматлари портали тўғрисидаги низомга мувофиқ шакллантирилган электрон  
ҳужжатнинг нусхаси ҳисобланади. Электрон ҳужжатнинг нусхасида кўрсатилган  
маълумотлар тўғрилигини текшириш учун [hero.gov.uz](http://hero.gov.uz) веб-сайтига ўтинг ва  
электрон ҳужжатнинг ноёб рақамини киритинг еки мобил телефон ёрдамида QR-  
кодни сканер қилинг. Диқкат! Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги  
728-сон карорига мувофиқ электрон ҳужжатлардаги маълумотлар қонуний  
ҳисобланади. Давлат органларига Ягона порталда шакллантирилган электрон  
ҳужжатларнинг нусхаларини қабул қилишини рад этишлари қатъяян тақиқланган.



9057



Jizzax viloyati Jizzax shahar Davlat  
xizmatlari markazi  
tomonidan 2020-yil 16-dekabrda  
318 542-son raqami bilan

«QAYTA RO'YXATGA OLINGAN»

«JIZZAX SERVIS MELIORATOR»  
mas'uliyati cheklangan jamiyati  
ishtroqchilarining 2020-yil 16-dekabrdagi  
2-soni umumiy yig'ilishi  
bayonnomasi bilan

«QAYTA TASDIQLANGAN»

**«DAVR PROEKT»**  
MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATINING  
USTAVI

Jizzax shahri – 2020

## I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. «DAVR PROEKT» Mas’uliyati cheklangan jamiyatining (bundan buyon matnda «Jamiyat» deb yuritiladi) mazkur Ustavi O’zbekiston Respublikasining «Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari, shuningdek Jamiyat Ishtirokchilarining 2020-yil 16-dekabr dagi Ta’sis shartnomasi asosida ishlab chiqilgan.

«DAVR PROEKT» Mas’uliyati cheklangan jamiyati «JIZZAX SERVIS MELIORATOR» mas’uliyati cheklangan jamiyatining xuquqiy vorisi xisoblanadi.

- 1.2. Jamiyatning Ishtirokchilari:
- «HOJIYEV DAVRON RAXMONOVICH» — 6 000 000.00 UZS, ya’ni 51.00%;
  - «BAYBUTAYEV ARIJAN YAXSHIBAYEVICH» — 5 755 000.00 UZS, ya’ni 49.00%;

- 1.3. Jamiyatning to‘liq firma nomi:  
Davlat tilida: «DAVR PROEKT» mas’uliyati cheklangan jamiyati,  
Rus tilida: Общество с ограниченной ответственностью «DAVR PROEKT»;  
Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi:  
Davlat tilida: «DAVR PROEKT» MChJ  
Rus tilida: ООО «DAVR PROEKT».
- 1.4. Jamiyatning pochta manzili: O’zbekiston Respublikasi, Jizzax viloyati Jizzax shahar A.Navoiy ko’chasi 2-uy.
- 1.5. Jamiyat cheklanmagan muddatga tashkil etiladi.

## II. JAMIYATNING YURIDIK MAQOMI

2.1. Jamiyat O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga asosan yuridik shaxs hisoblanadi. Jamiyat belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o’tkazilganidan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi.

2.2. Jamiyat o‘z faoliyatini mazkur ustav va O’zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq va ta’sis hujjatlariga asosan amalga oshiradi.

2.3. Jamiyat o‘z majburiyatları bo‘yicha O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi. Jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlar qo’shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo’shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatları bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

2.4. Jamiyat o‘zining firma nomi yozilgan shtamp va blankalarga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan o‘z emblemasiga, tovar belgisiga ega bo‘lishga haqli.

2.5. Jamiyat o‘z egaligida mustaqil balansda hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega, o‘z nomidan huquqlar va majburiyatlar olishi, sudda da‘vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

## III. JAMIYATNING FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI

3.1. Jamiyat O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga muvofiq vakolatxonalar va filiallar va boshqa alohida bo‘linmalar tuzishga haqli.

## IV. JAMIYATNI TASHKIL ETISHDAN MAQSAD VA FAOLIYAT TURLARI

- 4.1. Jamiyatni tashkil etishdan asosiy maqsad ishtirokchilar manfaatlari uchun foyda olish.  
Jamiyat faoliyatining predmeti bo‘lib Ixtisoslashmagan ulgurji savdo hisoblanadi. Shu jumladan:

- Qurilish loyihalarini ishlab chiqish;
- Qurilish smetalarini ishlab chiqish;
- Qurilishda taxlil, o'Ichov ishlarini amalga oshirish;
- Qurilish binolari uchun texnik xulosalar tayyorlash;
- Qurilishda ekspertiza ishlarini bajarish;
- Qurilishda texnik nazorat ishlarini olib borish;
- Qurilishda auditorlik ishlarini bajarish;
- Burg'ulash ishlarini bajarish;
- Loyixalashtirish uchun loyixa va smeta xujjalariга bulgan talablarni kondirish;
- Buyurtmachilar uchun ajratilgan er uchastkalariga kurilish pasport xujjalarni tayyorlab berish;
- SHartnomalar asosida kurilish, rekonstruksiya va restavratsiya buladigan ob'ektlar uchun loyixa xujjalarni tayyorlash;
- Topo-geodezik ishlarni olib borish, shaxardagi kurilishlarni loyixa buyicha xisobga olib borish;
- Qurilish ta'mirlash va bo'yоqlash, pardoqlash ishlarini bajarish, qurilish montaj ishlarini bajarish, qurilish mollarini ishlab chiqarish va qadoqlash, olib kelish chakana narxlarda sotish;
- Barcha turdag'i santexnika ishlarini bajarish, trubaldardan yuqori, o'rta va past bosimli gaz quvurlarini o'tkazish, montaj qilish. Sinovdan o'tkazish va ta'mirlash, axoli va tashkilotlarga gaz quvurlari tortish, gaz uskunalar o'rnatish va ta'mirlash, barcha turdag'i gaz ishlarini bajarish;
- Binolarga va aholining shaxsiy uylariga issiqlik tarmoqlarini ulash, montaj qilish va ta'mirlash, santexnika, kanalitsiya, issiqlik izolyatsiyasi va boshqa payvandlash ishlarini bajarish;
- Bino, inshoot, uy-joy va boshqa va boshqalar uchun loyiha smeta xujjalarni tayyorlash, toposiyomkalar, kartografik va boshqa ishlarni bajarish, tasdiqlangan loyihalar asosida yo'llar qurish, yer, tuproq va boshqa turdag'i barcha ishlarini bajarish;
- Ko'p qavatl'i uylarni rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, qurilishga ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, obodonlashtirish ishlarini olib borish;
- Yoqori, o'rta, past bosimli po'lat, polietilen va boshqa materiallardan bo'lgan gaz, suv, oqovasuv quvurlarini qurish, ta'mirlash va almashtirish, gaz qurilmalarini montaj qilish, sozlash va ishga tushirish;
- Suv xo'jaligi bilan bog'liq ob'ektlarda kurilish montaj ishlarini bajarish;
- Asfalt ishlab chiqarish, yo'llar qurish, o'rta va joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;
- Drenajlar o'rnatish, ta'mirlash xizmat ko'rsatish;
- Qurilish uchun metall buyumlar (temir va cho'yan panjara, pillapoya tutqichi, pog'onalar, eshiklar, avyon(naves)lar) va boshqalar ishlab chiqarish;
- Ohak, gips, alebastr, qurilish suvoqlari ishlab chiqarish;
- Barcha turdag'i pochta va kuryerlik xizmatlarini ko'rsatish;
- Chet davlatlardan jo'natilayotgan yuklarni egalariga yetkazib berish xizmatlarini ko'rsatish;
- Umumiyoq qo'shilish shahobchalar (choyxona, kafe, restoran, oshxona) tashkil qilish;
- Barcha turdag'i chakana va ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanish;
- Tabiiy va suniy baliqchilik havzalari yetishtirish, baliq chavaqlari yetishtirish va sotish;
- «Sadok(kafas) usulida baliqchilik mahsulotlari yetishtirish va sotish;
- Makaron va makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- Non va non maxsulotlari ishlab chiqarish;
- Milliy shirinliklar, non-bulka va qandolatchilik mahsulotlarini tayyorlash va sotish;
- Orgtexnika va kompyuterlarni ta'mirlash, ularni sotish va sotib olish xizmatlarini tashkil qilish;
- Kanselyariya mollarini ishlab chiqarish, olib kelish va sotish;
- Birlamchi va ikkilamchi qog'ozdan xo'jalik qog'ozlari ishlab chiqarish va savdosi bilan shug'ullanish;
- Dori-darmon, tibbiy uskunalar olib kelish va savdosi bilan shug'ullanish, aholini dori-darmon bilan ta'minlash va pullik tibbiy xizmatlar ko'rsatish;

- To'qimachilik va trikotaj sanoati uchun yigirilgan ip, xom va tayyor ip gazlamalar, texnik gazlamalarni (belting, uzatma qayishlari, yong'in qo'lqoplari va shu kabilar) qo'shgan holda momiq, paxtali vatin, iplar va boshqalarni ishlab chiqarish;
- Paypoq ishlab chiqarish;
- To'shaklar uchun tayyor yoping'ichlar, yostiq jildlari va boshqa maxsulotlar ishlab chiqarish;
- Ustki va ichki kiyimlar ishlab chiqarish;
- Maxsus kiyimlar ishlab chiqarish;
- Ishlab chiqarishning barcha turlari (yengil sanoat, xalq xo'jaligi, kimyoviy, qishloq xo'jaligi, qurilish mahsulotlari va boshqalar) bilan shug'ullanish;
- Pishirilgan va silikatli g'ishtlar, spool bloklar va panellar, gishtdan blok va panellar, sopol cherepitsalar ishlab chiqarish;
- Tosh, shag'al, qum, qum-shag'al aralashmalarini qazib olish, maydalash va boyitish ishlarini bajarish;
- Bruschatka, shlakoblok, sopol buyumlar va g'isht mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish;
- Barcha turdag'i maishiy xizmat ko'rsatish faoliyoti (sartaroshxona, tikuvchilik, fotosuratga olish, video va boshqalar) bilan shug'ullanish, go'zallik salonlari (pedikyr, sartaroshlik va boshqa), kelinlar liboslarini va aksesuarlarini ijara berish, tikuvchilik, tikuvchilik sexlari va boshqa faoliyat bilan shug'ullanish;
- Kiyim-kechak va gazlamalardan tayyorlangan boshqa buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va ularga ishlov berish;
- Aholiga va tashkilotlarga maishiy xizmat ko'rsatish;
- Maktabgacha ta'lif muassasasi tashkil qilish hamda bolalarni tarbiyalash;
- Avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish shahobchalarini tashkil etish va xizmat ko'rsatish;
- Aholi va tashkilotlarga barcha turdag'i avtotransport xizmatini ko'rsatish;
- Avtotransport vositalarida shahar ichida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchi va yuk tashish faoliyati bilan shug'ullanish;
- Avtosalonlar va avtomobillar savdosini tashkil etish;
- Avtomobillar va qishloq xo'jalik texnikalari ehtiyoj qisimlarini chakana narxlarda sotish;
- Muz ishlab chiqarish va sotish;
- O'simlik yog'i ishlab chiqarish, moylarini gidrogenatsiyalsh, margarin maxsulotlarini, xayvon yog'larini, mayonez, sham va uning yog'ini va tabiiy alifmoy ishlab chiqarish;
- Chorva mollari uchun kunjara, omuxta yem tayyorlash va sotish;
- Yog'-moy maxsulotlari ishlab chiqarish, qadoqlash va sotish;
- Turli o'simliklardan (masxar, kungaboqar va boshqalar) yog'-moy ishlab chiqarish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan tayyor metal buyumlar ishlab chiqarish;
- Alyumin profildan eshik, deraza romlari va boshqa turdag'i mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish;
- Neft mahsulotlari bilan savdo qilish, avtomobilarga yogilgi mahsulotlari (benzin, dezil, suyuq gaz va siqilgan tabiiy gaz) quyish shahobchalarini tashkil qilish va ular orqali savdo faoliyatini tashkil etish;
- Chorvachilik bilan shug'ullanish, naslli chorvalarni ko'paytirish;
- Chorva mahsulotlarini (go'sht, sut, teri va jun) yetishtirish, tayyorlash, qayta ishslash va shartnomaga asosida chakana narxlarda sotish:
- Parrandachilik mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash, qayta ishslash va savdosi bilan shug'ullanish;
- Issiqxonalarini tashkil etish va xizmat ko'rsatish;
- Qishloq xo'jalik (paxta-g'alla), poliz, tutchilik, bog'dorchilik va boshqa mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishslash, saqlash, shuningdek bozorlarda, shu jumladan o'z savdo shahobchalarini orqali sotish;
- Uyali aloqa operatorlariga vositachilik xizmatlari ko'rsatish.
- Uyali telefonlarga barcha turdag'i xizmatlar ko'rsatish, ekspress kartalar savdosini tashkil etish va uyali telefonlarni tarmoqqa ulash;

- Xalq iste'mol mollarini olish va sotishda, hamda madaniy-maishiy va xo'jalik buyumlarini ijara berishda vositachilik xizmatini ko'rsatish;
- Ko'chat yetishtirish, parvarishlash va bog' yaratish. Bog'dorchilik, tutzor va uzumchilik mahsulotlarini yetishtirish qayta ishlash, saqlash, bozorlarda, shu jumladan o'z savdo shohobchalari orqali sotish;
- Aholi va tashkilotlarni keng ko'lamdag'i xalq iste'moli mollari bilan ta'minlash va sotish;
- Ipak tolasi xom ashynosini ishlab chiqarish va qayta ishlash;
- To'qimachilik va trikotaj sanoati uchun yigirligan ip, xom va tayyor ip gazlamalar, texnik gazlamalarni (belting, uzatma qayishlari, yong'in qo'lqoplari va shu kabilar) qo'shgan holda momiq, paxtali vatin, iplar va boshqalarini ishlab chiqarish;
- Irrigatsiya melioratsiya va qurilish-montaj ishlarini bajarish;
- Barcha turdag'i mebel mahsulotlari ishlab chiqarish, sotib olish va sotish;
- Yog'och mahsulotlarini qayta ishlash, har-xil turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish;
- Ishlab chiqarishning barcha turlari (yengil sanoat, xalq xo'jaligi, kimyoiyi, qishloq xo'jaligi, qurilish mahsulotlari va boshqalar) bilan shug'ullanish;
- To'y va marosimlarni bezash va video tasvirga olish, ko'paytirish;
- Aholi va tashkilotlarga barcha turdag'i reklama va dizayn xizmatlarini ko'rsatish;
- Brokerlik va dilerlik faoliyati bilan shug'ullanish;
- Internet xizmatlarini ko'rsatish;
- Barcha turdag'i tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, sotib olish va sotish;
- Plastmassa buyumlar ishlab chiqarish;
- Tegrimonlarda don mahsulotlarini qayta ishlash va sotish;
- G'isht-keramika va boshqa qurilish materiallari ishlab chiqarish va sotish;
- Tovarlar va xizmatlar eksport va import operatsiyalarini amalga oshirish;
- Barcha xududlarda o'z vakolatxona va savdo shahobchalarini barpo etish;
- Chet ellarda korxonaning yuridik maqomiga ega bo'lgan va bo'lmagan filiallarini tashkil qilish;
- Chet ellarda vakolatxonalarini tashkil qilish;
- Chet el sarmoyalarini jalb etish yo'li bilan qo'shma korxonalar tuzish, xalq iste'moli mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha kichik koronalarni rivojlantirish;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa har qanday faoliyat turlari.

4.2. Amalga oshirilishi uchun maxsus ruxsatnomasi (litsenziya) talab qilinadigan faoliyat tegishli ruxsatnomasi (litsenziya) olingandan keyin amalga oshiriladi.

## V. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Jamiyat ishtirokchilari quyidagi larda haqlidirlar:

qonun hujjatlari va jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning ishlarini boshqarishda ishtirok etish;

qonun hujjatlarida va jamiyat ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlarini bilan tanishish;

foydani taqsimlashda va uning tegishli qismini olishda ishtirok etish;

jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushini yoxud uning bir qismini qonun hujjatlarida va jamiyatning ustavida nazarda tutilgan tartibda mazkur jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga yoxud uchinchi shaxslarga sotish yoki o'zga tarzda ularning foydasiga voz kechish;

jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat'i nazar, qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtida jamiyat ishtirokchilari tarkibidan chiqish;

jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan molmulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish;

jamii ulushlari jamiyat ustav fondining kamida o'n foizini tashkil etadigan jamiyat ishtirokchilari o'z majburiyatlarini qo'pol buzayotgan yoxud o'z harakatlari yoki harakatsizligi bilan jamiyatning faoliyat ko'rsatishiga imkon bermayotgan yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtirayotgan ishtirokchini jamiyatdan sud tartibida chiqarilishini talab qilishga haqlidirlar;

jamiiat ishtirokchilari jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

#### 5.2. Jamiyat ishtirokchilarining majburiyatlar:

qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilishlari;

qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda hissa qo'shishlari;

jamiiat faoliyati to'g'risidagi sir tutilgan axborotni oshkor qilmasliklari shart.

Jamiyat ishtirokchilariga jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

### VI. JAMIYATNING MOL-MULKI VA MABLAG'LARI

6.1. Jamiyat mustaqil ravishda o'ziga tegishli mol-mulkdan foydalanadi.

6.2. Jamiyatning mol-mulki:

— ishtirokchilarning ulushlaridan;

— jamiiat faoliyati natijasida olingen foydadan;

— O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarini bilan taqilanganmagan boshqa manbalardan shakllantiriladi.

### VII. JAMIYATNING USTAV FONDI

7.1. Jamiyatning tashkil etilishi va faoliyatini amalga oshirishi uchun ishtirokchilar 11 755 000.00so'm miqdorida ustav fondi shakllantirishadi.

7.2. Ishtirokchilarning ustav fondidagi ulushlari quyidagicha:

— «HOJIYEV DAVRON RAXMONOVICH» — 6 000 000.00 UZS, ya'ni 51.00%;

— «BAYBUTAYEV ARIJAN YAXSHIBAYEVICH» — 5 755 000.00 UZS, ya'ni 49.00%;

7.3. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin bir yil mobaynida Ishtirokchilarining har biri ustav fondidagi ulushini to'liq kiritadi.

7.4. Pul, qimmatli qog'ozlar, o'zga ashylar yoki mulkiy huquqlar yoxud pul bahosiga ega bo'lgan boshqa shaxsga o'tkaziladigan o'zga huquqlar jamiyatning ustav fondiga qo'shiladigan hissalar bo'lishi mumkin.

7.5. Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi qaroriga asosan ustav fondini ko'paytirishi yoki kamaytirishi mumkin.

7.6. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirishga u to'liq to'langanidan keyingina yo'l qo'yiladi. Jamiyat ustav fondining ko'paytirilishi jamiyatning mol-mulki hisobiga va (yoki) jamiyat ishtirokchilarining qo'shimcha hissalarini hisobiga, agar bu jamiyatning ustavi bilan taqilangan bo'limasi, jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslar hissalarini hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Jamiyat ustav fondini jamiyatning mol-mulki hisobiga ko'paytirish to'g'risidagi qaror bunday qaror qabul qilingan yildan oldindi yil uchun jamiyatning buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosidagina qabul qilinishi mumkin.

7.7. Jamiyatning ustav fondini kamaytirish ishtirokchilarga tegishli bo'lgan ulushlarning nominal qiymatini kamaytirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Jamiyat ustav fondini

kamaytirish va uning yangi miqdori to'g'risida qaror qabul qilingan vaqtidan boshlab o'ttiz kun mobaynida jamiyatning unga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlarini xabardor qilishi, shuningdek qabul qilingan qaror to'g'risida ommaviy axborot vositalarida ma'lumot e'lon qilishi shart.

7.8. Ustav fondini o'zgartirish to'g'risidagi qaror uchinchi shaxslar uchun ustav va ta'sis shartnomasiga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyingina kuchga kiradi.

#### **VIII. ISHTIROKCHILARNING JAMIYAT ISHTIROKCHILARI SAFIDAN CHIQISHI VA UNING OQIBATLARI**

8.1. Jamiyatning har qanday ishtirokchisi jamiyat ishtirokchilari safidan chiqish huquqiga ega. Bunday holatda ishtirokchi ustav fondidagi o'z ulushini qolgan ishtirokchilarga yoxud ularning roziligi bo'yicha uchinchi shaxslarga sotish yoki ularning foydasiga voz kechish huquqiga ega.

8.2. Ishtirokchi ishtirokchilar safidan chiqishida unga o'zi tomonidan ustav fondiga kiritilgan ulushning haqiqiy qiymati natura yoki haqiqiy qiymatiga teng bo'lgan pul ko'rinishida qaytariladi.

8.3. Jamiyat ishtirokchisi o'zgartirilganidan keyin jamiyatning ta'sis hujjatlariga zaruriy o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishi lozim.

8.4. Jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi.

#### **IX. JAMIYAT ISHTIROKCHISINING JAMIYAT USTAV FONDIDAGI ULUSHINING (ULUSHI BIR QISMINING) JAMIYATNING BOSHQA ISHTIROKCHILARIGA VA UCHINCHI SHAXSLARGA O'TISHI**

9.1. Jamiyat ishtirokchilaridan har biri jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushini yoki ulushining qismini jamiyatning boshqa ishtirokchilariga va uchinchi shaxslarga sotishga yoki boshqacha shaklda ularning foydasiga voz kechishga haqli.

9.2. Jamiyat ishtirokchisining ulushi to'liq to'langan davrgacha bo'lgan muddatda to'langan qismi bo'yichagina begonalashtirilishi mumkin.

9.3. Jamiyat ustav fondidagi ulusdan (ulushning bir qismidan) boshqa shaxsnинг foydasiga voz kechish, oddiy yozma shaklda amalga oshirilishi kerak.

#### **X. JAMIYATNING HUJJATLARINI SAQLASH**

10.1. Jamiyat quyidagi hujjatlarni saqlashi shart:

— jamiyatning ta'sis hujjatlari, shuningdek jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan hamda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar;

— jamiyat muassisasi yig'ilishining jamiyatni tashkil etish va jamiyatning ustav fondiga qo'shiladigan pulsiz hissalarning pul bahosini tasdiqlash to'g'risidagi qarorni, shuningdek jamiyatni tashkil etish bilan bog'liq boshqa qarorni o'z ichiga olgan bayonnomasi;

— jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat;

— jamiyatning o'z balansida turgan mol-mulkka bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;

— jamiyatning filiallari va vakolatxonalarini to'g'risidagi nizomlar;

— jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishlarining, jamiyat kuzatuv kengashi, jamiyatning kollegial ijro etuvchi organi va jamiyatning taftish komissiyasi majlislarining bayonnomalari;

— jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) va auditorlik tashkilotining xulosalari;

— qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar.

10.2. Yuqorida aytib o'tilgan hujjatlar ijro etuvchi organ joylashgan joyda saqlanadi.

10.3. Agarda amaldagi qonun hujjatlari bilan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lmasa, jamiyat mazkur ustavning 10.1-bandida ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlarni doimiy saqlaydi.

10.4. Jamiyat har qanday ishtirokchining talabi bilan unga axborot, shuningdek ta’sis hujjatlarini unga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalar bilan taqdim qilishi yoki nusxa berishi shart.

## XI. HISOB VA HISOBOT

11.1. Jamiyat o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va o‘z mahsuloti va xizmatlariga narxlarni bozor konyukturasidan kelib chiqib belgilaydi.

11.2. Jamiyat mustaqil ravishda buxgalteriya hisobini, statistika va moliyaviy hisobotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

11.3. Jamiyat mustaqil ravishda jamiyatning tashkiliy tuzilmasini, shtat jadvalini va mehnatga haq to‘lashni O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hal qiladi.

11.4. Jamiyat faoliyatiga oid hisobotlarni qonunda belgilangan tartibda davlat organlariga taqdim qiladi.

## XII. DAROMADNI TAQSIMLASH VA ZIYONLARNI QOPLASH

12.2. Jamiyat ustav fondining 15% miqdorida zaxira fondi shakllantiradi. Jamiyatning zaxira fondi uning zararlarini qoplash va qonunda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning ustav fondidagi ulushni (ulushning qismini) sotib olish uchun mo‘ljallangan.

## XIII. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI

13.1. Jamiyatning boshqaruv organlari bo‘lib quyidagilar belgilanadi:

- ishtirokchilarning umumiy yig‘ilishi — oliv boshqaruv organi;
- direktor jamiyatning ijro etuvchi organi.

13.2. Jamiyatda kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi belgilangan tartibda tashkil etilishi mumkin.

## XIV. ISHTIROKCHILARNING UMUMIY YIG‘ILISHI

14.1. Jamiyatning oliv boshqaruv organi bo‘lib jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi hisoblanadi.

14.2. Jamiyatning har bir ishtirokchisi jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishida jamiyatning ustav fondidagi o‘z ulushiga mutanosib ovozlar soniga ega bo‘ladi.

14.3. Jamiyat ishtirokchilari umumiy yig‘ilishining mutlaq vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- a) jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash, shuningdek tijorat tashkilotlarining boshqa birlashmalarida ishtirok etish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- b) jamiyat ustav fondining miqdorini o‘zgartirish;
- v) ta’sis hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritish;
- g) jamiyatning ijro etuvchi organlarini tuzish va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

d) jamiyatning taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

ye) agar jamiyatning ustavida kuzatuv kengashini tuzish nazarda tutilgan bo‘lsa, uni saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

j) yillik hisobotlarni va yillik buxgalteriya balanslarini tasdiqlash;

z) jamiyatning sof foydasini jamiyat ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlash to‘g‘risida qaror qabul qilish;

- i) jamiyat organlarining faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlash (qabul qilish);
- k) auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish, auditorlik tashkilotlari hamda ularning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini aniqlash;

l) boshqa yuridik shaxslarni, vakolatxonalar va filiallarni tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- m) jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;
- n) tugatuvchini tayinlash va tugatish balanslarini tasdiqlash.

Jamiyat ishtirokchilari umumiylig'i ilishining a), b), v), z) va m) kichik bandlarida ko'rsatilgan masalalar yuzasidan qarorlari jamiyatning barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Jamiyat ishtirokchilari umumiylig'i ilishining qolgan qarorlari, jamiyat ishtirokchilari umumiylig'i ovozlar sonining ko'pchilik ovozlar bilan qabul qilinadi.

#### XV. IJRO ETUVCHI ORGAN

15.1. Jamiyatning ijro etuvchi organi bo'lib jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi direktor hisoblanadi.

15.2. Jamiyatning direktori ishtirokchilarining umumiylig'i ilishi tomonidan saylanadi.

15.3. Jamiyat va jamiyatning direktori o'rtasidagi shartnoma, jamiyat nomidan, direktor tayinlangan jamiyat ishtirokchilarining umumiylig'i ilishida raislik qiluvchi yoki jamiyat ishtirokchilarining umumiylig'i ilishi tomonidan vakolat berilgan jamiyat ishtirokchisi tomonidan imzolandi.

15.4. Direktor lavozimiga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Direktor bilan tuzilgan mehnat shartnomasini direktorni saylash to'g'risidagi masala ko'rib chiqilgan jamiyat ishtirokchilarining umumiylig'i ilishi raisi imzolaydi.

15.5. Direktor lavozimidan ishtirokchilarining umumiylig'i ilishi qarori bilan lavozimidan ozod qilinishi mumkin.

15.6. Jamiyatning direktori:

jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi va bitimlar tuzadi;

jamiyat nomidan vakillik qilish huquqi uchun ishonchnomalar beradi;

jamiyat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi va ularni bekor qiladi, xodimlarga nisbatan rag'batlantrish choralarini va intizomiy jazolarni qo'llaydi;

jamiyatning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi; qonun hujjatlari va jamiyatning ustavi bilan jamiyat ishtirokchilarining umumiylig'i ilishi va jamiyatning kuzatuv kengashi vakolatlari jumlasiga kiritilmagan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

15.7. Direktor ishtirokchilar umumiylig'i ilishiga hisobot beradi va uning oldida jamiyat faoliyatining amalga oshirilishi hamda unga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarning bajarilishi uchun javobgardir.

15.8. Direktor jamiyat mol-mulkini tasarruf etishi va ishtirokchilarining umumiylig'i ilishi qarori bo'yicha yirik bitimlar tuzishi mumkin.

#### XVI. JAMIYAT FAOLIYATI YUZASIDAN NAZORAT

16.1. Jamiyatda alohida nazorat qiluvchi organning tuzilishi ko'nda tutilmagan.

16.2. Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat ishtirokchilar yoxud mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

#### XVII. XODIMLAR

17.1. Jamiyat ma'muriyati xodimlar bilan jamoa shartnomasini imzolaydi. Ushbu shartnomaning mazmuni, shu jumladan «Xodimlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish

to‘g‘risidagi nizom» O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, mazkur ustav, shuningdek jamiyat faoliyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

### XVIII. JAMIYATNING TIJORAT SIRI

18.1. Jamiyatning tijorat siri — uchinchi shaxslarga noma‘lumligi sababli tijorat qimmatiga ega bo‘lgan, qonuniy asosda erkin foydalanilmaydigan axborot bo‘lib, ushbu axborot jamiyat tomonidan uning maxfiyligini muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘radi.

18.2. Tijorat sirining muhofaza qilinishini ta‘minlash maqsadida xodim:  
ish beruvchi tomonidan o‘rnatalgan tijorat siri rejimiga rioya etishi;  
ish beruvchining roziligidisiz tijorat sirini oshkor etmasligi va undan shaxsiy maqsadlarda foydalanmasligi;

mehnat shartnomasi (kontrakt) bekor qilinganda o‘z foydalanishida bo‘lgan, tijorat siri aks etgan moddiy jismlarni ish beruvchiga topshirishi yoki uni mazkur jismlardan ish beruvchining nazorati ostida yo‘q qilib yoxud o‘chirib tashlashi shart.

### XIX. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

19.1. Jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49 — 55-moddalarida va «Mas‘uliyati cheklangan hamda qo‘srimcha mas‘uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 49 — 55-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

19.2. Jamiyatni qayta tashkil etish ishtirokchilarining umumiyligi yig‘ilishi qarori bo‘yicha qo‘sib yuborish, birlashtirish, bo‘lish, ajratib chiqarish va qayta tuzish shaklida amalga oshirilishi mumkin.

19.3. Jamiyat belgilangan tartibda ixtiyoriy ravishda ishtirokchilarining Umumiyligi yig‘ilishi qarori bo‘yicha tugatilishi mumkin. Jamiyat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra sudning qaroriga binoan ham tugatilishi mumkin.

19.4. Jamiyatning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritib qo‘yliganidan so‘ng jamiyatni tugatish tamomlangan, jamiyatning faoliyati esa tugagan hisoblanadi.

### XX. NIZOLARNI HAL QILISH

20.1. Ta’sis shartnomasi va ustav bo‘yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar ishtirokchilarining o‘zaro kelishuvni yo‘li bilan amaldagi qonun hujjatlari, ta’sis shartnomasi va ustavga asosan hal qilinadi.

20.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo‘li bilan hal qilish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda ular sud orqali, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

### XXI. YAKUNIY QOIDALAR

21.1. Mazkur Ustav jamiyat O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatiga olingan vaqtidan boshlab kuchga kiradi.

21.2. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan masalalar, qonunda boshqa hollar nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu Ustavga muvofiq tartibga solinadi.

#### ISHTIROKCHILAR

— «HOJIYEV DAVRON RAXMONOVICH» —

— «BAYBUTAYEV ARIJAN YAXSHIBAYEVICH» —